O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO‘JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DM

100011, Toshkent shahri, Abay ko‘chasi, 6-uy, Tel/Faks: 71-203-11-01, E-mail: davexpertiza@exat.uz, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: Inoyatov Mirabbos Mirkomilovich

2026 - yil 26 - iyundagi 286976 - sonli

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

Obyekt nomi: «Toshkent shahri Yunusobod tumanida joylashgan 7-sonli shahar klinik shifoxonasini rekonstruktsiya qilish (mavjud bo‘lgan binoni buzish va davolash korpuslari va qo‘shimcha binolarning qurilishi» (Qoldiq ish hajmlari va korrektura) ishchi loyihasi.

Buyurtmachi: TOSHKENT SHAHAR HOKIMIYATI YAGONA BUYURTMACHI XIZMATI INJINIRING KOMPANIYASI DUK

Bosh loyihachi: "LIDER PROF PROEKT" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Moliyalashtirish manbai: Davlat byudjed mablag'lari

Bosh pudratchi: Tanlov savdolari (tender) orqali aniqlanadi.

Qurilish turi: Rekonstruksiya

Murojaat raqami: 127172

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.12.2018 yildagi PQ-4067-son qarori.

1.2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Toshkent shahridagi ayrim ob’ektlarda amalga oshirilayotgan obodonlashtirish va qurilish ishlarining borishini jadallashtirish” bo‘yicha 2023-yil 16-iyundagi 111-sonli sayyor yig‘ilish bayoni.

1.3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 13-martdagi VM 20/26-40-sonli sayyor majlis bayoni.

1.4. Toshkent shahar Xokimi tomonidan 14.05.2026-yilda tasdiqlangan 01-B-97-sonli yig‘ilish bayoni.

1.5. Toshkent shahar Yunusobod tumani 7-sonli shahar klinik shifoxonasi bilan kelishilgan va Toshkent shahar hokimligi “Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompaniyasi DM tomonidan 2026-yil tasdiqlangan loyihalash topshirig‘i.

1.6. Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi tomonidan 2019-yil 25-yanvarda berilgan 19-sonli,2023-yil 15-sentyabrda berilgan 1726-1726266-91998-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshiriqlari.

1.7. “VEOLIA ENERGY TASHKENT” XK MChJ ning 03.02.2026-yildagi TS-4-069-sonli texnik shart.

1.8. “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ “Toshkent shahar elektr tarmoqlari” MChJ ning 16.02.2026-yildagi 26266169515-sonli texnik shart.

1.9. “Toshkent shahar suv ta’minoti” AJning 22.01.2026-yildagi 270/4-257-sonli texnik sharti.

1.10. 2019-yilda TSHF «O’ZGASHKLITI» DUK tomonidan bajarilgan qurilish maydonchasining muhandislik-geologik sharoitlari to‘g‘risidagi xulosa.
1.11. O‘zbekiston Respublikasi geologiya va mineral resurslari Toshkent gidrogeologiya stansiyasining 2022-yil 29-iyundagi 0271-sonli gidrogeologik xulosasi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha tarkibiy bayoniga ko‘ra ishchi loyihaning elektron yo‘nalishda taqdim qilingan loyiha hujjatlari.
2.2. “Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi” DUK Toshkent shahar filiali tomonidan 2019-yil berilgan 276-sonli ekspertiza xulosasi.
2.3. 2023-yilda «LIDER PROF PROEKT» QMJ tomonidan ishlab chiqilgan teplotexnik hisob.
2.4. 2023-yilda «LIDER PROF PROEKT» QMJ tomonidan ishlab chiqilgan binoning energetik pasporti.
2.5. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi vazirligi «Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi»DUK tomonidan 2023-yil 5-dekabrda berilgan 133407-sonli yig‘ma ekspert xulosasi.
2.6. Qoldiq hajm ishlarining qaydnomasi, buyurtmasi tomonidan tasdiqlangan.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. *Qurilish maydonchasining ma’lumotlari.*
Normativ shamol bosimi - W= 0,38 kPa.
Normativ qor qatlami vazni - S = 0,50 kPa.
Tumanning zilzilabardoshligi -9 ball.
Tuproqning seysmik xususiyati – I (birinchi).
Qurilish maydonining xisobiy zilzilabardoshligi – 9 ball.
Muhandislik-geologik xulosaga ko‘ra, o‘rganilgan chuqurligi 10,0 m gacha bo‘lgan uchastka oraliq qatlamli qumloq, jigarrang rangdagi bo‘shdan zichgacha, qattiqdan plastik konsistensiyaga qadar bo‘lgan loyssimon tuproq qatlamidan tashkil topgan. Loy tuproqlar yuzasidan ular 1,2-1,7 m qalinlikdagi tuproq va o'simlik qatlami va 1,0-1,1 m qalinlikdagi quyma tuproqlar bilan qoplangan.
Gruntning cho‘kuvchanligi – birinchi.
Tuproq suvlari yer sathidan 8,0-8,1 m chuqurlikda topilgan.
Tuproqning muzlash chuqurligi – 0,7 m.
3.2. Bosh reja.
Ushbu ob’ekt Toshkent shahar, Yunusobod tumani, Axmad Donish ko‘chasida joylashgan.
Bosh rejaga ko‘ra quyidagi bino va inshootlar ko‘zda tutilgan:
- shifoxona binosi;
- oshxona;
- patologik bo‘lim (morg);
- ochiq ayvonchalar;
- nazorat o‘tish punkti;
- transformator podstansiyasi;
- qozonxona;
- kislorod stansiyasi va boshqalar.

3.2. Loyiha yechimlari.

Toshkent shahri Yunusobod tumanida joylashgan 7-sonli shahar klinik shifoxonasini rekonstruktsiya qilish (mavjud bo‘lgan binoni buzish va davolash korpuslari va qo‘shimcha binolarning qurilishi obyekti bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.12.2018 yildagi PQ-4067-son qaroriga muvofiq loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilgan hamda, Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi Toshkent shahar filialining 2019-yil 276-son ekspertiza

xulosasi olingan. Rekonstruksiya ishlari tarkibiy mazmuniga ko‘ra 7 qavatli davolash korpusi, oshxona, pataloganotomiya bo‘limi va boshqa qo‘shimcha bino va inshootlar, hududni obodonlashtirish ishlaridan iborat bo‘lgan.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh Vazirining Toshkent shahrida amalga oshirilayotgan obodonlashtirish va qurilish ishlarining bilan tanishish yuzasidan tashrifi davomida qabul qilingan 2023-yil 16-iyun 111-son sayyor yig‘ilish Bayoni 7-bandi mazmuniga ko’ra qurilish obyekti qiymatini maqbullashtirish hamda hudud arxitekturasiga moslashtirish maqsadida rejalashtirilgan 7 qavatli davolash korpusi binosi o’rniga 5 qavatli bino qurish topshirig’i berilgan. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi vazirligi «Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi»DUK tomonidan mazkur bayon ijrosi yuzasidan 2023-yil 5-dekabrda 133407-sonli yig‘ma ekspertiza xulosasi berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 13-martdagi VM 20/26-40-sonli sayyor majlis bayonida bosh pudrat tashkiloti bilan shartnoma bekor qilinishi, rekonstruksiya qilish yuzasidan qoldiq ish hajmlari nazorat o‘lchovi orqali aniqlash va xatlov dalolatnomasi rasmiylashtirish, aniqlangan qoldiq ish hajmlari joriy narxlarda aniqlashtirish va ekspertizasi xulosalarini olish vazifalari yuklangan.

Toshkent shahar Xokimi tomonidan 14.05.2026-yilda tasdiqlangan 01-B-97-sonli yig‘ilish bayoni va loyihalash topshirig‘iga ko‘ra quyidagilar ko‘zda tutilgan:

- qoldiq xajmlarni aniqlashtirish;

-qurilayotgan binoning tashqi fasad qismi ishlari qurilish davrida bir qancha to’g’irlab bo’lmas notekis amalga oshirilganligini inobatga olgan holda, kelajakda zamonaviy ko‘rinishga ega bo’lishi va ko‘p yillarga xizmat qilishini nazarda tutib, metall profil asosda keramogranit qoplamasi bilan qoplash ishlari bajarilish.

-maxsus tashxis-tekshiruv xonalarda rentgen nurlaridan ximoya qilish maqsadida deformatsiya choklarini nur qaytaruvchi maxsus gipsokarton qoplamalari bilan qoplash, yuk ko’taruvchi konstruksiyalar bugungi kun holatini inobatga olgan holda qo’shimcha kuchaytirish ishlarini bajarish;

-binoning energiya samaradorligi, hamda namlikdan himoya qilish darajasini oshirish maqsadida sokol qavatini mavjud tuproqli asoslarini ochib zamin bilan tutash vertikal qismlarini qayta mastika surtgan holda, penopolistrol qoplamasi bilan qoplash;

-binoning ichki devorlarida bajarilgan tarx yechimlari qurilish-montaj ishlari xatoliklarini to’g’irlash maqsadida qisman eshik va rom o‘rinlarini ochish va to’ldirish ishlarini amalga oshirish;

-O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 11-martdagi PQ-100-sonli qaroriga asosan binoni issiqlik ta’minoti bilan ta’minlash maqsadida, markazlashgan issiqlik ta’minotiga ulash;

- Yuqoridagi va boshqa ish turlari bo’yicha avvalgi loyiha yechimlarida berilgan, bajarilmagan ish hajmlarini chiqarib tashlash va boshqalar.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

Bino barcha muhandislik tizimlari bilan jihozlangan: isitish, shamollatish, elektr ta’minoti, aloqa va signalizatsiya, videokuzatuv, suv ta’minoti va kanalizatsiya, xavfsizlik, yong‘in signalizatsiyasi va boshqa tizimlar shaharning muhandislik tarmoqlariga texnik shartlarga muvofiq ulanadi (ART va loyihalashtirish topshirig‘iga muvofiq).

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Ishchi loyiha quyidagi tashkilotlar tomonidan ko’rib chiqilgan va kelishilgan:

- Toshkent shahar qurilish bosh boshqarmasi tomonidan ko‘rib chiqilgan va tasdiqlangan (2023-yil 12-sentyabrdagi 93851726-sonli xulosa);
- O‘zbekiston Respublikasi ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi huzuridagi Davlat ekologik ekspertizasi markazi Toshkent shahar filiali (2026-yil 26-fevraldagi 01-02/14-10728-sonli Davlat Ekologik ekspertizasi xulosasi);
- Sog‘liqni saqlash vazirligi SEO va JSX Toshkent shahar boshqarmasining 2023-yil 24-iyundagi 13-19/1416-sonli xulosasi;
- Sog‘liqni saqlash vazirligi SEO va JSX Toshkent shahar boshqarmasining 2023-yil 4-iyuldagi 16-19/37-sonli xulosasi (rengen xonalari uchun);
- Sog‘liqni saqlash vazirligi SEO va JSX Toshkent shahar boshqarmasining 2023-yil 4-iyuldagi 16-19/38-sonli xulosasi (MSKT xonalari uchun).

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ishchi loyiha ekspertiza ko‘rigiga buyurtmachining izohlarsiz taqdim etilgan.

6.2. Ekspertiza jarayonida mahalliy (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihasiga asosiy tuzatishlar va qo‘shimchalar kiritildi.

Ishchi loyihaning qoldiq hajmi (qoldiq ish xajmlari qaydnomasiga ko‘ra) va o‘zgarish kiritilgan qismi ekspertiza ko‘rigidan o‘tkazildi.

6.3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-dekabrdagi PQ-393-sonli Qarorining 8-bandida tovar, ish va xizmatlarning narx qismi - Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi “Loyihalarni va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi” DUK tomonidan ekspertizadan o‘tkazilishi belgilanligi sababli obyektning narx qismi ekspertiza tomonidan ko’rilmadi.

6.4. Buyurtmachi va loyihachi ishchi loyihani tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi zarur.

6.5. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o‘rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha hujjatlarini o‘zgartirish talabi qo‘yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachiga to‘liq tuzatishlarsiz berilsa, ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

6.6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qarori 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida “Mualliflik nazorati”ni amalga oshirilishinni ta’minlaydi.

6.7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi 579-sonli qarorining 3-bob 29-bandiga muvofiq va ShNK 1.03.06-13 ga asosan «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma’lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma’lumotlarning ishonchliligi bo‘yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo‘yicha) yuklatiladi.

7. Xulosalar.

7.1« Toshkent shahri Yunusobod tumanida joylashgan 7-sonli shahar klinik shifoxonasini rekonstruktsiya qilish (mavjud bo‘lgan binoni buzish va davolash korpuslari va qo‘shimcha binolarning qurilishi” *(Qoldiq ish hajmlari va korrektura)* ishchi loyihasi ekspertiza tekshiruv natijalarini hisobga olgan holda ko‘rib chiqib, kelishishga tavsiya etiladi.

7.2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003-yildagi 261-sonli qarori va ShNK 4.01.16-09 ga muvofiq, tanlov savdolarini o‘tkazish uchun ob’ektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi.

Ishtirokchi ekspertlar: A’zamxo‘jayev Oqilxo‘ja A’loxo‘ja O‘g‘li, Abduraxmanova Dilfuza Baxromovna

Bosh ekspert

ABDURAXMANOVA DILFUZA BAXROMOVNA